Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna,
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING IJTIMOIY EMOTSIONAL – FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

UO'K: 13.00.02.
DOI: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_12_6

ARABBOYEVA M.A. ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING IJTIMOIY EMOTSIONAL – FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Maqolada ona tili ta'limining maqsadi va Milliy o'quv dasturida belgilangan nutqiy va lingvistik kompetensiyalar tahlil qilingan hamda zamonaviy yondashuv asosida o'quvchilarning ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ona tili ta'limi, ona tili ta'limining maqsadi, fikr tarbiyasi, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, lisoniy kompetensiya, ijtimoiy emotsional-fuqarolik kompetensiyasi.

АРАББОЕВА М.А. РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ УРОКИ РОДНОГО ЯЗЫКА

В статье проанализированы цель обучения родному языку, речевые и лингвистические компетенции, указанные в Национальной учебной программе, а также представлены пути развития социальных эмоционально - гражданских компетенций учащихся на основе современного подхода.

Ключевые слова и понятия: образование на родном языке, цель обучения родному языку, воспитание мысли, компетенция, речевая компетенция, языковая компетенция, социальная эмоционально-гражданская компетенция.

ARABBOYEVA M.A. DEVELOPMENT OF SOCIO-EMOTIONAL-CIVIL COMPETENCES OF STUDENTS' THROUGH NATIVE LANGUAGE LESSONS

The article analyzes the objectives of native language teaching and oral and linguistic competences stated in the National Curriculum, as well as ways to develop socio-emotional civil competences of students based on modern approaches.

Key words and concepts: native language teaching, objectives of native language teaching, education of thought, competence, oral competence, linguistic competence, socio-emotional-civil competence.

Kirish.

Zamonaviy ta'limning maqsadi jamiyat va davlat ishlarida faol, o'zining mustaqil fikriga ega, ilmli, bilimli, qaysi soha yoki kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbining ustasi bo'lgan intiluvchan, ijodkor, kashfiyotchi, bo'layotgan voqeliklarga tanqidiy baho berib o'z fikrlarini mustaqil ayta oladigan, tez o'zgarayotgan zamonga o'zining salohiyati bilan moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Mavzuning dolzarbligi.

Inson o'zining teran fikrlashi, jamiyat va tabiatda bo'layotgan voqea-hodisalarga tanqidiy va tahliliy munosabat bildira olishi, o'zgalar fikrini anglay olishi, nutq sharoitiga mos fikr tuza olishi va mana shu fikrini o'ziga xos ohanglar bilan tinglovchilarga yetkazib berishi, o'z nutqi orqali ta'sir ko'rsata olishi, atrofidagi insonlar bilan madaniyat bilan axborot almashina olishi insonning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida muhim sanaladi. Ko'rinadiki, insonning jamiyatda kamol topishida ona tili ta'limining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Ona tili ta'limi bolaga mustaqil va ijodiy fikrlashni, fikrini tinglovchiga mantiqiy, aniq, qisqa, lo'nda, izchil, sof holatda yetkazib berishga o'rgatadi. Demak, ona tili ta'limi faqatgina bolani mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatibgina qolmay, balki shaxsiy fikrini vaziyatga mos holatda QAYERDA? KIMGA? QANDAY? yetkazishni ham o'rgatadi, Ushbu muhim vazifalarni bajarish hamda bajartira olish ona tili ta'limi va ona tili ta'limining tashkilotchisi bo'lgan muallim zimmasidadir.

Bu masala barcha davrlarda allomalar va pedagoglar e'tiborida bo'lgan. Jumladan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ham fikr tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagi fikrlani keltiradi:

"Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi birig boylangan jon ila tan kabidur.

Masalan: joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida o'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturushga yaramaydur. Basharti o'ltursa, insonlar: «Eski uyga yangi zoldivor», «kir ko'ylakka jun jiyak», «mis qozonga loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur"[1].

Yuqoridagi matndan "Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur" jumlasini olib tahlil qilsak, shuning o'zidayoq insonning jamiyatda, ijtimoiy hayotda o'rin topishida, sharaflanishida fikr ahamiyatli ekanligi ko'rinadi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarda ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetensiyalarini ona tili darslari orqali rivojlantirish zaruriy masaladir. Chunki inson jamiyatning bir bo'lagi. Inson jamiyatdagina o'zini anglaydi, o'zligini topadi, o'zini kashf qiladi va barcha imkoniyatlarini unda namoyon qiladi. Bularning barchasi esa fikr almashish orqali amalga oshadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ona tili ta'limini zamonaviy pedagogik texnologiyar asosida tashkil etish va o'quvchilarning ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetentsiyalarini rivojlantirish orqali Milliy o'quv dasturini amalyotga joriy qilish.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari xorijda SH.Balli, K.Byuler, E.Benvenist, A.V.Xutorskoy, G.Spenser, A.Blum, rus pedagogikasida Ye.Rujьeva, A.Efremova, A.Zimnyaya, I.Baydenko, G.Sayaxovalar, o'zbek pedagogikasida N.Azizxo'jaeva, U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, M.Tojiev, N.Muslimov, N.Turdiev, O.Qo'ysinov, U.Mingboev, G.Ibragimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan, biroq o'quvchilarda ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompententligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari monografik tadqiq etilmagan.

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 5-6-betlar. www.ziyouz.com kutubxonasi

Maqolaning ilmiy mohiyati. 5-sinf o'quvchilarida mavzu bo'yicha kompetentlikni shakllantirish, suhbat asosida o'quvchilarda ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetentsiyalarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish.

Maqolaning ob'ekti.

Ona tili darslari orqali olingan bilimlarning hayotda qo'llay olish tajribasining yetarli ekanligi o'quvchining jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida asos bo'ladi. Tildan foydalanish tajribasi bu kompetentsiya deb nomlanib, Milliy o'quv dasturida bugungi kunda ona tili o'qitishda o'quvchi shaxsida bir necha fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish maqsad qilib olingan. Jumladan, 5-sinf o'quvchilarida ona tili ta'limi orqali ijtimoiy emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish maqola ob'ektidir.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqot davomida kuzatish, qiyosiy va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuqorida ko'rsatilgan tayanch kompetensiyalardan ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi amaldagi Milliy dasturida Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasi deb nomlanadi va u quyidagicha ta'riflanadi:

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunishdan, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

"Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasi" birikmasi nomini so'zma-so'z tahlil qilsak bu kompetensiya orqali o'quvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan sifat va fazilatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy [a. - jamoa, jamiyatga oid] Inson va jamiyat hayotiga oid[1].

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog`liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir[2]. Emotsional intellekt - bu hissiyotlarni anglash, boshqa odamlarning va ularning shaxsiy maqsadlari, g'ayratlari va istaklarini anglash qobiliyati, shuningdek amaliy muammolarni hal qilish uchun ularning his-tuyg'ulari va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini boshqarishdir[3].

Psixologiyada emotsiyalar deb kechinmalar shaklidagi inson hayotiy faoliyati uchun tashqi va ichki vaziyatlarni baholash va shaxsiy ahamiyatni aks ettiradigan psixik jarayonlarga aytiladi[4].

Fuqarolik jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan huquqiy bog'lanishidir[5]. Fuqarolikka ega shaxs fuqaro deyiladi. Bu bog'lanish fuqaroning tegishli davlatga nisbatan bo'lgan huquq va burchlari hamda uning o'sha davlat tomonidan himoya qilinishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra butun O'zbekiston hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi[6].

Fuqarolik — shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huqukiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqarolikka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshishini ta'minlash choralarini ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi. O'z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalarga so'zsiz rioya kiladilar, o'zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar. Bu huquq va majburiyatlar yig'indisi fuqaroning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi,

[1] Abduvahob Mamadaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monov. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'ati .(Davlat tilini rivojlantirish departamenti) "Sahhof", 2021-yil, 94-bet.

[2] Дусмуҳамедова Ш.А., Алимбоева Ш.Т. Шахс ҳиссий емотсионал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррексияси.– Тошкент: "Маҳалла ва оила" нашриёти, 2022.

[3] Otamuratov R.U., O`rolov H., Rahimova S.., Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari xalqaro ilmiy-texnik konfrensiya materiallar to`plami. 2022., - 476

[4] Хомская Е.Д., Батова Н.Я. Мозг и эмоции (нейропсихологическое исследование). – Москва. Российское педагогическая агенство, 1998. С. 141.

[5] O'zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari, archived from the original on 2016-03-06, qaraldi: 2008-04-17Fuqarolik]]

[6] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. VI bob., archived from the original on 2004-11-15, qaraldi: 2008-04-17Fuqarolik]]

fuqarolar ana shu maqom bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan ajralib turadilar.

Yuqoridagi izohlarni birlashtirib ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasining o'quvchi hayotida juda ham muhim ekanligini anglash qiyin emas. Chunki o'quvchi bolaligida ham, o'smirlik yoki o'spirinlik davrida ham jamiyat ichida yashaydi, tarbiyalanadi, ulg'ayadi. Jamiyatdagi insonlar bilan doimiy muloqoqtga kirishadi va ularning ehtiyojllarini his qiladi, ularning holatlariga qarab ma'lum darajada o'zining emotsiyasini nomoyon qiladi va belgilangan yoshda fuqarolikni qabul qiladi mamlakat, xalq, insoniyat va davlatga nisbatan huquq va burch tushunchalarini anglay boshlaydi.

Ona tili ta'limi orqali ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsad qilinar ekan, ona tili ta'limi jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Til ta'limini eng so'ngi zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish, ta'lim jarayonida o'quvchilarning to'la faolligiga erishish, har bir dars jarayonida ularni fikrlashga chorlaydigan usullarni izlab topish bugungi zamon ona tili o'qituvchisining zimmasidadir.

Amaldagi 5-sinf ona tili darsligida 37-dars uchun quyidagi mavzu va mavzuni mustahkamlash uchun Najmiddin Kubro haqidagi matn berilgan. O'quvchi dastlab mavzu bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lgach matn orqali ularning olgan bilimlari amaliyotda tekshiriladi va "Munosabat bildiring" qismida berilgan savollar orqali o'quvchilar mustaqil mulohaza yuritishi va javob berishlari kerak.

37-dars. AYRIM UNLILAR IMLOSI.

A VA O UNLILARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

130-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing.

Najmiddin Kubro

Xorazmni istilo qilishdan oldin Chingizxon Najmiddin Kubroga maktub yo'llaydi: "Men Urganchni bosib olib, qatli om qilmoqchiman. Siz oila a'zolaringiz va shogirdlaringiz bilan xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin".

Vatanparvar bobomiz uning taklifinirad etadi. Mo'g'ul qo'shinlari shaharga hujum qilgan vaqtda: "Yo Vatan, yo o'lim!" – deb shaharni mudofaa qilishga kirishadi.

Hal qiluvchi jangda u dushman bilan mardlarcha olishadi. Kamondan otilgan o'qlardan biri uning ko'ksiga sanchiladi. Shahid bo'layotgan Najmiddin Kubro yov qo'lidan bayroqni tortib olib, uni changallagancha halok bo'ladi. Dushman bayroqni tortib olish uchun uning barmoqlarini kesishga majbur bo'ladi.

Najmiddin Kubroning bu jasorati tildan tilga o'tib, afsonaga aylandi.

Munosabat bildiring.

1. Siz ham o'z yurtingizni Najmiddin Kubrodek seva olasizmi?
2. Nima deb o'ylaysiz: Kubro nega bayroqni changallab o'ldi?
3. Vatanni himoya qilishga har doim tayyormisiz?
4. Matndagi "a" va "o" unlilarining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Qaysi so'zlarda ular farqlanyapti?[1]

Matn so'ngida o'quvchilar fikrini o'rganish uchun berilgan yuqoridagi savollardan so'ng ularning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini yanada rivojlantirish uchun o'quvchilarni o'ylantiradigan, fikrlashga chorlaydigan darslikdan tashqari savollar bilan "Aqliy hujum" uyushtirish yaxshi natija beradi. Jumladan, "Siz shu yoshingizda Vatan uchun nima qila olasiz?", "Vatanni tasvirlab bera olasizmi?", "Vatanni asrash, avaylash va himoya qilish uchun, albatta, katta bo'lish shartmi?", "Vatan deganda nimani tushunasiz ?" , "Oila, mahalla, jamiyat va xalqsiz Vatanni tasavvur qila olasizmi?" kabi savollarni ham berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchi Vatan nima ekanligini tiliga qotgan shoirona so'zlar bilan emas anglash orqali his qilsagina uning aql va jismi orqali har bir qilgan harakati foydadan holi bo'lmaydi.

Ushbu dars orqali mavzu yuzasidan bilim berish bilan birgalikda "Aqliy hujum" uyushtirish ularni o'ylashga, mushohada va mulohaza qilishga majbur qiladi va ularning Vatanga bo'lgan egalik hisini, daxldorlik, asrash va avaylash kabi tuyg'ularini, vatanni sevish, ardoqlash

[1] N.Mahmudov, A.Sobirov, SH.Sattorov, SH.Toshmirzayeva, D.Mannopova. Ona tili. (5-sinf). – Toshkent . 2020-yil, 61-61-betlar.

singari fazilatlarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan tuproq, vatan, davlat, xalq, jamiyat oldidagi huquq va burchlarini anglatishni maqsad qiladi.

Matn orqali o'quvchilarning mavzu bo'yicha o'rgangan bilimlari mustahkamlanadi, matn yuzasidan mustaqil fikri tinglanadi hamda matn mazmunidan olingan xulosa bo'yicha o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalari rivojlantiriladi. Beshinchi sinfdanoq o'quvchilarga mana shunday matnlar orqali fuqarolik huquq va burchlarini anglatish davlat taraqqiyoti uchun qo'shilgan ta'limning eng buyuk hissasi bo'ladi.

O'quvchilarning ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni bera olamiz:

- ona tili ta'limini amalga oshirishda doimiy ravishda o'quvchilarning og'zaki yoki yozma fikrini tinglashga erishish;
- o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalarni izlab topish;
- o'quvchilarni munosabat bildirishga o'rgatish;
- "Aqliy hujum" usulidan har darsda foydalanish;
- qisqa shakldagi videolar namoishi orqali ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham kompetensiyaviy maqsadga erishish.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir fan, har bir dars hayot uchun muhim va uni anglatish ta'limning va ta'lim tashkilotchisi bo'lgan o'qituvchining vazifasidir. Ta'lim jarayonida o'quvchi shakllanadi va jamiyat, davlat uchun kerakli shaxsga aylanadi. Ma'lum bir dars o'quvchi hayotini yo'lga sola olsa va o'quvchi olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lsagina jamiyat rivojlanadi, davlat taraqqiyotga erishadi.

Jumladan, yuqorida aytib o'tganimizdek, ona tili ta'limi insonni jamiyat va davlatda o'z o'rniga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir shaxs kim bo'lmasin, qaysi kasb yoki hunar egasi bo'lmasin o'z fikri, dunyoqarashi, g'oyalari, ehtiyojlari, munosabati va daxldorligini til orqali ifodalaydi va yetkazib bera oladi. Shuning uchun ham ona tili ta'limi orqali ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish til ta'limining eng asosiy vazifalaridan biridir. Shunday ekan, ona tili ta'limi jamiyat va davlat hayotida alohida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar royxati:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 5-6-betlar.www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Abduvahob Mamadaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monov. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'ati .(Davlat tilini rivojlantirish departamenti) "Sahhof", 2021-yil, 94-bet.
3. Дусмуҳамедова Ш.А., Алимбоева Ш.Т. Шахс ҳиссий эмоционал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррекцияси.– Тошкент: "Маҳалла ва оила" нашриёти, 2022.
4. Otamuratov R.U., O`rolov H., Rahimova S. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallar to`plami. 2022., - 476
5. Хомская Е.Д., Батова Н.Я. Мозг и эмоции (нейропсихологическое исследование). – Москва. Российское педагогическое агентство, 1998. С. 141.
6. O'zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari, archived from the original on 2016-03-06, qaraldi: 2008-04-17Fuqarolik
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. VI bob., archived from the original on 2004-11-15, qaraldi: 2008-04-17Fuqarolik
8. N.Mahmudov, A.Sobirov, SH.Sattorov, SH.Toshmirzayeva, D.Mannopova. Ona tili. (5-sinf). – Toshkent . 2020-yil, 61-61-betlar.